

RUS-TUZEM VA JADID MAKTABLARI O'QITISH TIZIMI XUSUSIYATLARI

Ahmadova Rohila Nodirjon qizi

Samarqand davlat pedagogika institute talabasi

rohilaahmadova8@gmail.com,

Ilmiy rahbar: dotsent Yuldasheva Saodat Azizovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan rus-tuzem maktablari hamda jadid maktablarining o'qitish tizimi, maqsad va vazifalari tahlil qilinadi. Rus-tuzem maktablarining mustamlakachilik siyosatidagi o'rni, rus tilining davlat ishlaridagi ahamiyati hamda jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati keng yoritilgan. Shuningdek, jadidlar xalqni savodli qilish yo'lida olib borgan islohotlar va bu yo'lda ko'rsatgan fidokorliklari tahliliy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: rus-tuzem maktablari, jadid maktablari, ta'lim tizimi, islohotlar, ma'rifat, rus tili, davlat siyosati, xalq savodxonligi, milliy uyg'onish, mustamlaka, o'qitish uslubi, jadidchilik harakati.

ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ В РУССКО-ТУЗЕМНЫХ И ДЖАДИДСКИХ ШКОЛАХ

Ахмадова Рохила Нодиржон кизи,

студентка Самаркандского государственного педагогического института

Научный руководитель: доцент Юлдашева Саодат Азизовна

Аннотация. В статье рассматривается система обучения, цели и задачи русско-туземных и джадидских школ, действовавших в Туркестане в конце XIX – начале XX веков. Раскрывается роль русско-туземных школ в колониальной политике, значение русского языка в государственных делах, а также

просветительская деятельность джадидов. Особое внимание уделено реформам и жертвенности джадидов на пути образования народа.

***Ключевые слова:** русско-туземные школы, джадидские школы, система образования, реформы, просвещение, русский язык, национальное возрождение, грамотность, колониализм, педагогика.*

FEATURES OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN RUSSIAN-NATIVE AND JADID SCHOOLS

Akhmadova Rohila Nodirjon qizi,

student of the at Samarkand State Pedagogical Institute,

*Scientific advisor: Associate Professor **Yuldasheva Saodat Azizovna***

***Annotation.** This article analyzes the educational system, goals, and objectives of Russian-native (Rus-tuzem) and Jadid schools that operated in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries. The role of Rus-tuzem schools in the colonial policy, the significance of the Russian language in state affairs, and the Jadid movement's efforts toward enlightenment are widely covered. The paper also discusses the Jadids' reforms and their selfless struggle for public education.*

***Keywords:** Russian-native schools, Jadid schools, education system, enlightenment, reform, Russian language, national revival, literacy, colonialism, pedagogy.*

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida o'lkada yangi turdagi maktablar – rus-tuzem maktablari tashkil etila boshlaydi. Bu maktablar orqali mahalliy aholining ma'lum qatlami rus tili va rus madaniyati asosida tarbiyalanib, imperiya boshqaruv tizimiga moslashtirilishi ko'zda tutilgan edi. Shu bilan bir qatorda an'anaviy maktab va madrasalar faoliyati davom etgan bo'lsa-da, ularning o'qitish uslubi zamon

talablari darajasida emasligi tobora yaqqol sezila boshladi. Aynan shunday sharoitda jadidchilik harakati maydonga chiqadi. Jadidlar ta'limni isloh qilish orqali jamiyatni yangilash, xalq savodxon-ligini oshirish va milliy ongini uyg'otishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. Ular tomonidan tashkil etilgan jadid maktablari yangi usulda o'qitish, dunyoviy fanlarni joriy etish hamda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish bilan ajralib turardi. Bu jarayon milliy uyg'onish harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib xizmat qildi.

Rus mustamlakachilarni Turkistonga kirib kelganlarida bu erdagi keng tarmoqli xalq maorifi o'choqlari, maktablar va madrasalar ularni ajablantiradi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilik tadriji uchun o'sha maktab va madrasalarning g'oyatda xavfli ekanligini payqadilar¹. Chorizmning Turkistonda ruslashtirishdan iborat maktab tizimi chorizm tomonidan Volga bo'ylarida yashovchi xalq uchun ma'qullangan "Ilminiskiy tizimi" dan farq qilar edi. 80-yillarning boshlarigacha chor Rossiyasining Turkistonda maktab sohasida tutgan siyosatining asosiy tamoyili mahalliy aholi farandlarini hozirgi zamon bilimiga faqat umumiy rus maktablaridagina o'rgatish edi. Natijada yangi turdagi maktabning rasmiy tashkil etilishi mahalliy tashabbus tufayli tezlashtirildi². 1884-yili 19-dekabrda Toshkentda savdogar Saidazimning o'g'li Said G'ani Azimboyev hovlisida mazkur maktab ochiladi.

Rus-tuzem maktablari mahalliy aholi uchun dunyoviy ta'lim olish mumkin bo'lgan evropa tilidagi birinchi maktab bo'ladi. Ushbu maktablarning maqsadi kelajakda tub aholi bolalaridan o'lka ma'mumuriyatining quyi pog'ona mansabdorlarini tayyorlashdan iborat edi. Mazkur maktabda rus tili birinchi yildan boshlab o'rgatila boshlaydi. *O'qish to'rt yillik bo'lib, o'quv yili 130 kundan oshmagan ba'zi manbalarda esa 125 kun bo'lgan* deb qayt etiladi³. Qishloq joylarida o'quvchilarni dala ishlari bilan bandligi tufayli o'quv yili kuzda kechroq boshlanib, bahorda ertaroq tugallanib,

¹ Mansurov U.U, To'xtabayev A.Sh. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. /O'quv qo'llanma. – T.: "O'zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi", 2021. - B. 11

² Abdullayeva M, Ta'lim tarixi. /O'quv qo'llanma. –T.: "Muharrir nashriyoti", 2013. - B. 60-65

³ Mansurov U.U, To'xtabayev A.Sh. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. /O'quv qo'llanma. – T.: "O'zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi", 2021. - B. 119.

maktabda yoshi 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'qitilgan hamda yangi turdagi ushbu maktab "rus-tuzem maktabi" degan nom bilan atala boshlangan¹.

1885-yildan rus-tuzem maktablari tizimi butun Turkiston bo'ylab tarqala boshlaydi. Imperiya Davlat kengashining "Turkiston o'lkasida xalq ta'limini shakllantirishdagi ba'zi o'zgarishlar haqida"gi farmoni e'lon qilinishi bilan birdaniga 14 ta rus-tuzem maktabining tashkil etilishi Turkistondagi podsho ma'muriyatining mazkur maktablarida qanday natijalar kutayotganligini namoyon etardi. Rus-tuzem maktablari faoliyatining dastlabki yillarida mahalliy aholi o'z farzandlarini ushbu maktabga yubormaydilar. Yangi maktablarni o'quvchilar bilan taminlash uchun avvalo, ma'muriyat xizmatchilari va badavlat kishilarning bolalari jalb etiladi. Ular esa, o'z navbatida muayyan to'lovlar evaziga kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini yollashga harakat qilishadilar².

1881-1914-yilgacha hozirgi O'zbekiston hududida bor-yo'g'i 160 ta rus-tuzem maktabi ishlab turgan, shulardan 135 tasi boshlang'ich maktab, 13 tasi yuqori boshlang'ich va 12 tasi o'rta maktab bo'lgan. Ularda 18 ming bola o'qigan, shundan qariyb 5000 tasi mahalliy millatlarning bolalari bo'lgan. Rus-tuzem maktablarida o'qiydigan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish kerak, toki ota-onalari bu maktablardan qo'rqmasinlar, degan g'oya asos qilib olingan edi³. Akademik Qori Niyoziyning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, 1899-yilda Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona hududlarining o'zidagina 4 632 ta maktab faoliyat ko'rsatgan. Ammo bu raqamlar Markaziy Osiyoda maorif qandaydir yutuqlarga erishganligini bildirmas edi. Statistik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, o'sha 1899-yilda Turkistonning hamma maktablarida 44 773 nafar o'quvchi bo'lgan, ya'ni o'rta hisob bilan bir maktabda o'qigan bolalar soni o'ntaga ham etmas edi. Bunday maktablarda o'quv kuni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida ikki soatlik mashg'ulotni rus o'qituvchisi, ikkinchi qismida esa saboqni o'zbek muallimi olib borgan⁴. Tuzem "mahalliy" sinfida

¹ Qodirov N.N. Turkiston o'lkasidagi rus ta'lim muassasalari tarixi. – T., 2013 - B. 104-105.

² Qodirov N.N. Turkiston o'lkasidagi rus ta'lim muassasalari tarixi. – T., 2013 - B. 104-105.

³ Abdullayeva M, Ta'lim tarixi. /O'quv qo'llanma. –T.: "Muharrir nashriyoti", 2013. - B. 60-65

⁴ Mansurov U.U, To'xtabayev A.Sh. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. /O'quv qo'llanma. – T.: "O'zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi", 2021. - B. 119

o'qituvchi o'quvchilarga musulmon dinini, shariatini hamda Qur'anni o'qitish uchun zarur bo'lgan arab yozuvini o'zlashtirishi kerak bo'lgan.

1887-yilda rus-tuzem maktablari uchun umumiy tarzda tuzilgan dastur ishlab chiqiladi. Dastlabki bu maktablar uchun darsliklar sistemasi ham bo'la olmaydi. Buning natijasida esa o'zbek bolalarini rus tiliga o'rgatish metodlari tasodifiy xarakterda bo'lgan. Mana shular natijasida rus-tuzem maktablarini kamdan-kam mahalliy millat vakillari bitirib chiqqanlar. Maktabni tamomlaganlar ruschani odatda ancha tez va ravon o'qiganlar, lekin rus grammatikasiga doir biror bir qoidani ham yoddan aytib bera olmaganlar, buning natijasida og'zaki so'zlashishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yganlar¹. Keyinchalik rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish dasturi va metodikasi rus bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallab tuziladi. Shu yilii, ya'ni 1884-yili sinash uchun rus-tuzem maktablari ochilgan vaqtda, Turkiston o'qituvchilar seminariyasining rus qismida tarbiyalanuvchilar uchun o'zbek tili kiritiladi.

80-yillarning boshlarida rus-tuzem maktablari ochilmasdan ilgari, ba'zi rus boshlang'ich maktablari huzurida katta yoshdagi mahalliy aholi uchun rus tilini bepul o'rgatish kurslari tashkil etiladi. Bu masalada 1880-yili Avliyo otada (hozirgi Jambul)dagi boshlang'ich rus maktabi tashabbus ko'rsatadi. Keyinchalik esa rus tili kurslari Farg'ona vodiysi shaharlaridagi rus bilim yurtlari huzurida ham ochiladi. Bunday kurslar 1884-1885-o'quv-yilida butun Turkistondagi rus-tuzem maktablari yonida ochiladi². XIX asrning oxirida Turkistonda 100 dan ortiq rus-tuzem maktablari bo'lib, xonliklar poytaxtlari Xivada 1891-yilda, Buxoroda esa 1894-yili rus-tuzem maktablari ochildi. O'sha paytda ba'zi shahar va volostlarda mulkdor va obro'li xonadonlar o'z bolalarini rus maktablarida o'qitishning foydasini bilganlar. Masalan, 1892-yili Toshkent maktablarini tugatgan 14 ta mahalliy o'quvchidan 3 tasi yirik er egalari, 4 tasi savdogar, 1 tasi pudratchi, 1 tasi mulla, 1 tasi choyxonachi, 1 tasi unboshi, 1 tasi etikdo'z, 1 tasi sarkor va 1 tasi o'qituvchi oilasidan bo'lgan. Turkiston o'lkasida 1901-yilda 45 ta, 1905-yilda 82 ta va 1911-yilda 89 ta rus-tuzem maktablari faoliyat ko'rsatgan. Mustamlakachi ma'muriyat rus-tuzem maktablarida O'rta Osiyo mahalliy aholisining keng ommasini ma'lumotli qilishni rejalashtirmaydi. Balki o'lka

¹ Shu kitob.

² Abdullayeva M, Ta'lim tarixi. /O'quv qo'llanma. –T.: “Muharrir nashriyoti”, 2013. - B. 67-68

ma'muriyatining quyi mansablarida xizmat qiluvchi ma'lum miqdorda savodli kishilar tayyorlashni maqsad qiladilar¹. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolmaydi, ammo ushbu masalada ham sho'ro davri tarixchilari o'z asarlarida chorizim davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni maqtab, rus bosqiniga qadar o'lkadagi ahvolni kamsitib erga urganlar. Ular 1897-yil o'lkada savodli o'zbeklar – 1,6 foizni, qozoqlar – 1 foizni, turkmanlar – 0,7 foizni, qirg'izlar – 0,6 foizni tashkil etgan. Aholining savodxonligi shundan keyingi yillarda ham oshmagan, O'zbekistonda har 100 kishining 98 tasi savodsiz edi, deb ta'kidlaydilar².

XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy –ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo'lsada, Turkiston o'lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, “gazeta o'qig'uvchilarni” mullalar “jadidchi” nomi bilan[4] atar edilar.

“Jadid” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “yangi” degan ma'noni anglatadi. Jadidlar Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan xalqlarni, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta'lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitish zarur deb bildilar. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi “Ganch (yosh) turk”lar tashkilotlari ta'sirida “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”, “Yosh turkistonliklar” degan nomlarda faoliyat olib borishgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar.

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan Ismoil Gaspirali (1851-1914) butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli xalqlarning madaniyatini o'rgangan edi. O'zi egallagan

¹ Qodirov N.N. Turkiston o'lkasidagi rus ta'lim muassasalari tarixi. – T., 2013. - B. 106-108-114

² Mansurov U.U., To'xtabayev A.Sh. O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi. /O'quv qo'llanma. – T.: “O'zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi”, 2021. - B. 120-121.

bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlarning taraqqiyotga erishish yo'llarini izlaydi. Ismoil G'aspirali 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroyda birinchi jadid maktabiga asos soldi. U o'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik tayyorladi. Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 ta o'quvchining savodi chiqarildi. Bu usul "usuli savtiya" – harf tovushi usuli, ya'ni "usuli jaded" nomi bilan keng tarqaldi. Uning 1888-yilda "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" kitobi chop etildi. Unda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imtihonlar bayon etilgan. Ismoil G'aspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma'rifatparvarlik g'oyalarining keyingi rivojiga turtki bo'ldi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi.

O'rta Osiyo jadidlari ma'rifatparvarlik yo'lida qrim ziyolilari tajribalarini o'rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg'or g'oyalaridan ham foydalandilar. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa mamlakatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yilda ularning eng yoshi Abdulhamid Cho'lpon – 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo'ja Behbudiy – 36 yoshda bo'lgan. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdilar.

O'rta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar: o'lkada yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish yo'li bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi. Ilg'or milliy ziyolilar faoliyatining muhim yo'nalishi yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish edi. Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonida Yevropa standartlari mezon

qilib olingan edi. Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik asoslari singari fanlar bilan bir qatorda islom ta'limoti asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan. Yangi darsliklar yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib turar edi. Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida Qozon va Orenburgda nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Xiva shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari:

- ✓ Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish;
- ✓ "Usuli qadim"ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish;
- ✓ Milliy davlat bunyod etish;
- ✓ Konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish;
- ✓ Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish;
- ✓ Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzishdan iborat bo'lgan.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surganlar. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadulla-xo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ning xizmati katta bo'ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab

Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga "Behbudiya kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. O'zbek milliy teatrining shakllanishida jadidlarning o'rni katta edi. Birinchi Prezident I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida: «*Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Teatr – bu ibratxonadir", deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir*», – deb yozadi. Turkistonda 1911-yil dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", A. Samadovning "Mahramlar", Fitratning "Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari" nomli asarlari shular jumlasidandir. Ular ichida, ayniqsa, o'zbek milliy teatri durdonasiga aylangan Behbudiyning "Padarkush" dramasi g'oyatda muhim voqelik bo'ldi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o'sha davrda yangicha shakl va mazmundagi asarlari bilan, shuningdek, musiqashunos, rejissyor, jurnalist va pedagog sifatidagi kashfiyotlari bilan o'zbek adabiyoti, san'at va ilm-fan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Darsliklar yozish, maktablar ochib, nochor oila farzandlarini savodli qilishni Hamza o'z faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biri deb biladi. U o'zi tashkil qilgan maktablarda bolalarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars beradi. "G'ayrat" kutubxonasini ochgan. Bolalar uchun "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi" darsliklarini yaratgan. 1916-yil Qo'qon shahrida Hamza rahbarligida havaskorlar teatri tashkil etildi. Unda namoyish etilgan birinchi spektakl Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" pyesasi bo'ldi. Bu pyesa o'zbek teatri shakllanishida ham, o'zbek dramaturgiyasi vujudga kelishida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Yozuvchi, shoir, tarjimon, birinchi o'zbek romani muallifi, felyetonlar qiroli Abdulla Qodiriy jadidlar qatorida millatni tutqunlikdan ozod qilish dardi bilan yashadi va erk, ozodlik g'oyalarini o'z asarlarida jasorat bilan aks ettirdi. Yozuvchining bolaligida otasidan eshitgan xotiralari, otasi guvoh bo'lgan, boshidan o'tkazgan voqealar uning asarlari dunyoga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Adibning

“O‘tkan kunlar”, “Mebrobdan chayon” kabi romanlari ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. Abdulla Qodiriy mustamlakachilikka qarshi yozgan asarlari uchun sho‘rolar hukumati tomonidan “xalq dushmani” sifatida hibsga olindi va 1938-yilda otib o‘ldirildi. Uning qisqa umri davomida yaratilgan boy ijodiy merosi o‘zbek adabiyotining durdonalari qatoridan joy oldi.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) Turkiston o‘lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma’rifatparvar siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan. 1904-yildan boshlab o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatlarda faol ishtirok etgan. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallar asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ‘ibotchisi bo‘lgan. Munavvarqori maktablar uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Yer yuzi” kabi darsliklarni yaratdi. Dastlabki paytlarda madaniy-ma’rifiy, keyinchalik siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri Abdulla Avloniy o‘lkada ta’lim, matbuot, teatr sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib, 1907-yil “Shuhrat” gazetasiga asos soldi. O‘zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darsliklarni yaratdi.

Jadidchilik harakatining Buxorodagi yirik vakillaridan biri – Abdurauf Fitrat 1909 yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asarida Buxoro amirligi idorasiga ma’lum islohot – o‘zgarish kiritish g‘oyasi va “Usuli jadid” deb nomlangan yangi maorif tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat butun vujudi, otash va jo‘shqin yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan mamlakat yoshlarini rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi. Fitratning “Hind sayyohining qissasi” asari ham 1912-yilda Istambulda nashr etilgan bo‘lib, bunda Buxoro amirligiga ma’lum darajada o‘z e’tiroznomasini bayon etadi. 1906-yilda Ismoil Obidov muharrirligida ilk bor o‘zbek milliy gazetasi “Taraqqiy” nashr etildi. Gazetaning birinchi soni chiqqan sana, ya’ni 27-iyun hozirda O‘zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyati faqatgina maktablarda emas, balki matbuotchilik faoliyati, jumladan, gazetalarning ko‘plab vujudga kelishida ham ko‘rindi. 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida “Taraqqiy”, shu yili

Munavvarqori muharrirligida “Xurshid”, 1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida “Shuhrat”, Ahmadjon Bektemirov muharrirligida “Osiyo” gazetalari chop etildi.

Ma’rifatchilikning yangi to’lqinida 1913-1915-yillarda “Samarqand”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “El bayrog‘I”, “Kengash”, “Ulug‘ Turkiston”, “Turon” gazetalari, “Oyna” jurnali, 1917-yilda esa “Hurriyat”, “Farg‘ona sahifasi” kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo‘ldi. Bu davrdagi nashrlar orasida “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalarining milliy o‘zlikni anglashdagi xizmatlari katta bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov Islom. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Toshkent, 2012.
2. Mansurov U.U, To‘xtabayev A.Sh. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi. /O‘quv qo‘llanma. – T.: “O‘zkitob savdo nashriyoti matbaa ijodiy uyi”, 2021.
3. Qodirov N.N. Turkiston o‘lkasidagi rus ta’lim muassasalari tarixi. – T., 2013.
4. Abdullayeva M, Ta’lim tarixi. /O‘quv qo‘llanma. –T.: “Muharrir nashriyoti”, 2013.
5. Zamonov Akbar, Rajabov Qahramon. O‘zbekiston tarixi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017.
6. Zamonov Akbar. O‘zbekiston tarixi. – T.:“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2019.
7. Tillayev Soyibjon. O‘zbekiston tarixi. –T.:“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2019.
8. Mirzayeva Zulxumor, Jalilov Komil. Ona tili va adabiyot. – Toshkent, 2022.